

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.Q.Qayumova, B.B.Nazirov Chortoqsoy daryosi o'rta oqimi baliqlarining toksonomik tahlili	130
M.A.Давидов Онтогенез и онтогенетическая структура ценопопуляций редкого эндемика <i>Ferula namanganica</i> sennikov	140
A.T.Turdaliyev, I.I.Musayev, A.A.Ahmadjonov, Y.H.Muhammadov Sug'oriladigan tuproqlarda og'ir metallar va metalloidlar dinamikasi.....	150
J.S.Komilov, M.Allamuratov, M.F.Bekchonova, E.A.Uzoqova Muqobil oqsil manbai sifatida chigirtka unining broyler jo'jalari o'sish ko'rsatkichlari, mahsuldorligi, go'sht sifati va immun tizimiga ta'siri.....	156
B.A.Abduraliyev Kurkalarda uchrovchi gelmintlar va ularning mavsumiy dinamikasi	162
M.M.Mamatova, G.S.Mirzayeva O'zbekiston davlat tabiat muzeyi kolleksiya fondida saqlanayotgan Yuguron qo'ng'izlar (Coleoptera: Cicindelidae).....	165
D.X.Hamrayev, H.Q.Esanov Oqtog' botanik geografik rayoni hududidan yig'ilgan gerbariylar tahlili.....	172
Sh.A.Xalimov, B.M.Sheraliyev Farg'ona vodiysi suv havzalarida <i>Iskandaria kuschakewitschi</i> (Herzenstein, 1890)ning tarqalishi va geoaxborot ma'lumotlari.....	179
S.M.Rustamova, A.A.Xadjiyev Surunkali parodontitda biomarkerlar kombinatsiyasining korrelyatsion bog'liqligi	187
D.E.Usmenov, Sh.S.Abdulkarimov, B.M.Sobirov, Sh.R.Xusanbayeva, A.T.Abdug'afforov, D.S.Juraqulov, A.A.Sharifjonov, Z.T.Buriev G'o'za (<i>G.Hirsutum</i> L.) tola rivojlanishining mikrorng lar tomonidan boshqarilishi	192
I.S.Botirova, B.D.Mamarasulov, Q.D.Davranov <i>Streptomyces albidoflavus</i> shtammining patogen bakteriyalarga qarshi ekstrakt faolligi ta'sirini aniqlash	197
I.I.Zokirov Sabzavot-poliz agroekotizimlarida "Tri-trofik" tizim koevolutsiyasi	201
S.A.Omonova, I.U.Maxammadrasulov Tog'li biotoplarda Carabidae (Coleoptera) faunasining ekologik tuzilishi va antropogen ta'sir ostidagi o'zgarishlari	206
M.M.Raxmonov, B.M.Sheraliyev Chortoqsoy daryosi ixtiofaunasi tur tarkibi haqida dastlabki tekshiruv natijalari	212
M.X.Akbarova, M.O.Shirmatova Botanik tadqiqotlarda fenologik kuzatuvlarning ahamiyati	218
A.K.Xusanov, M.A.Hakimova, A.A.Yax'eev Микропластиковое загрязнение речных экосистем Ферганской долины: вклад узбекских ученых в оценку антропогенного воздействия на водные ресурсы Центральной Азии.....	228
Sh.Q.Yuldasheva, A.Q.Xamidov Farg'ona vodiysi sharoitida ensifera vakillarining faunasi va bioekologiyasi	232
G'.G'.Zohidov, A.R.Batoshov "O'zbekiston milliy gerbariysi" (tash) noyob ilmiy obyektida saqlanayotgan <i>Polygonaceae</i> juss. oilasining Farg'ona vodiysida tarqalgan turlarning tahlili.....	236
G.R.Atoyeva, D.L.Atbekova, D.Y.Maxkamova, Z.Z.Abdushukurova, S.I.Talapova Maishiy chiqindilar ta'sirida tuproq gumusi va muhitining o'zgarishi.....	241
A.K.Xusanov, Z.S.Turdiev Farg'ona vodiysida yirtqich qandalalar (Insecta: Heteroptera) bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga oid	247

QISHLOQ XO'JALIGI

S.A.Ibroximova D.M.Xoldarov B.M.Qo'chqorov Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda ishqoriy va ishqoriy-yer metallari geokimyosi.....	254
M.T.Isag'aliyev, B.M.Qo'chqorov, M.I.Aktamov, S.A.Ibrohimova Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda og'ir metallar geokimyosining Quvasoy sement	



UO'K: 636.5:616.995.2

KURKALARDA UCHROVCHI GELMINTLAR VA ULARNING MAVSUMIY DINAMIKASI

ГЕЛЬМИНТЫ У ИНДЕЕК И ИХ СЕЗОННАЯ ДИНАМИКА

HELMINTHS IN TURKEYS AND THEIR SEASONAL DYNAMICS

Abduvaliyev Bahtiyorjon Avazbekovich 

Farg'ona davlat universiteti dotsenti v.b.b.f.d. (PhD)

Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya

Ushbu maqola Farg'ona vodiysining tog'oldi, adir va cho'l hududlarida kichik parrandachilik xo'jaliklari va oilaviy korxonalar hamda xonadon sharoitida yerda erkin holda parvarish qilinadigan kurkalarda uchraydigan gelmintlarni o'rganadi. Shuningdek kurkalarning gelmintlar bilan zararlantirish darajasi va intensivligini va parazit-xo'jayin o'zaro ta'sirining ekologik omillar hamda fasllar bilan bog'liqligini o'rganadi. O'rganishlar natijasida kurkalarning 59,1% kasallangan. Ularda gelmintlarning 25 ta turi qayd etildi. Gelmintologik tadqiqotlarda bahor va yozda gelmintlarning tarqalishi va intensivligini yuqori darajada ekanligi aniqlandi.

Аннотация

В данной статье изучены гельминты, обнаруженные на мелких птицеводческих фермах и семейных предприятиях предгорных, предгорных и степных районов Ферганской долины, а также у индеек, содержащихся на земле в домашних условиях. Изучены уровень и интенсивность инвазированности индеек гельминтами, а также взаимосвязь взаимодействия паразитов и хозяина с факторами окружающей среды и сезонами года. В результате проведенных исследований инвазировано 59,1% индеек. У них зарегистрировано 25 видов гельминтов. Гельминтологические исследования выявили высокую распространенность и интенсивность инвазированности гельминтами в весенне-летний период.

Abstract

This article studies helminths found in small poultry farms and family enterprises in the foothills, foothills and steppe regions of the Fergana Valley, as well as in turkeys kept free on the ground in household conditions. It also studies the level and intensity of helminth infestation in turkeys and the relationship of parasite-host interaction with environmental factors and seasons. As a result of the studies, 59.1% of turkeys were infected. 25 species of helminths were recorded in them. Helminthological studies revealed a high prevalence and intensity of helminths in spring and summer.

Kalit so'zla: kurka; gelmintlar; zararlantirish darajasi; invaziya intensivligi.

Ключевые слова: индейка; гельминты; уровень поражения; интенсивность инвазии.

Key words: turkey; helminths; level of damage; intensity of invasion.

KIRISH

Parranda go'shti va tuxum kabi parranda mahsulotlari yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi. Bu sohada ishlab chiqarish xarajatlari past va rentabellik yuqori. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning asosiy maqsadi aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida va sifatli ta'minlashdir. Bugungi kundagi islohotlar natijasida Respublikada zamonaviy talablarga javob beradigan sanoat miqyosidagi parrandachilik fermalari tashkil etildi. Shu bilan birga, kichik parrandachilik xo'jaliklari va oilaviy korxonalar hamda xonadon sharoitida xam turli xil parranda turlarini ko'paytirish keng tarqaldi va yangi mahsuldor zotlarni parvarishlash rivojlangan. Sanoat parrandachilik fermalari innovatsion texnologiyalar yordamida qurilgan va veterinariya-sanitariya talablariga javob bersa-da, kichik xo'jaliklari va aholi xonadonlarida yerda erkin holda parvarish qilinadigan parrandalar uchun veterinariya-sanitariya qoidalari va bioxavfsizlik choralari to'liq ta'minlanmagan.

BIOLOGIYA

Parrandachilik sohasining rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan ko'plab omillar mavjud. Ularning asosiylari parranda gelmintlari va ular keltirib chiqaradigan gelmintoz kasalliklar. Bu kasalliklar turli shakllarda dunyoning turli mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda xam o'rganilgan va oldini olish choralari ko'rilmagan taqdirda gelmintlar parranda mahsuldorligini pasaytirishi, mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va parrandalarning ommaviy o'limga olib kelishi aniqlangan.

Shu maqsadda, biz kichik parrandachilik fermalarida va aholi xonadonlarida yerda erkin holda parvarish qilinadigan kurkalarning gelmint bilan zararanishini aniqlash uchun fasllarga qarab parazitologik tadqiqotlar o'tkazish muhim deb hisobladik.

MATERIALLAR VA TADQIQOT USLUBLARI

Farg'ona vodiysining tog'oldi, adir va cho'l hududlarida kurkalarning gelmintlar bilan zararanish darajasi va intensivligini aniqlash uchun fasllarga qarab bir qator gelmintologik tadqiqotlar o'tkazildi. Vodiyning tog'oldi hududida (Farg'ona va Pop tumanlari) o'tkazilgan tadqiqotlarda bahorda 46 fekal va 33 ta kurka, yozda 43 fekal va 38 ta kurka, kuzda 52 fekal va 35 ta kurka, qishda esa 47 ta fekal va 49 ta kurka tekshirildi.

Adir hududlari (Quva tumanb) bahorda 48 ta fekal va 29 ta kurka, yozda 37 ta fekal va 28 ta kurka, kuzda 52 ta fekal va 31 ta kurka, qishda esa 38 ta fekal va 24 ta kurka tekshirildi.

Cho'l hududlari (Yozyovon tumani) bahorda 42 ta fekal va 33 ta kurka, yozda 48 ta fekal va 42 ta kurka, kuzda esa 57 ta fekal va 29 ta kurka tekshirildi.

Qishda 35 ta fekal namunasi va 26 ta kurka ichki organlari tekshirildi. Kurkalarda gelmintlarning tarqalishi Fyulleborn usuli va ketma-ket yuvish yordamida, zararanish intensivligi esa Skryabinning to'liq va to'liq bo'lmagan gelmintologik yorib ko'rish usullari yordamida aniqlandi.

Tadqiqotlar Farg'ona viloyat hayvonlar kasalliklari tashhisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi parazitologiya laboratoriyasi va Farg'ona davlat universiteti zoologiya va umumiy biologiya laboratoriyasida o'tkazildi.

NATIJALAR

Farg'ona vodiysining tog'oldi, adir va cho'l hududlarida, turli iqlim zonalar bilan ajralib turadigan joylarda, xususiy parrandachilik xo'jaliklarida boqiladigan kurkalarda mavsumiy ravishda farq qiluvchi gelmint turlarini bitta va aralash shakllarda kechishini aniqlash uchun koprologik tekshiruvlar va gelmintologik yorib ko'rish usullari qo'llanildi.

Tadqiqotlarimiz davomida biz o'rgangan parrandalarning 59,1% kasallangan. Ularda gelmintlarning 25 ta turi qayd etildi.

Aniqlangan turlarning 7 nomdagisi sestodalar sinfiga mansub bo'lib, ularning 5 turi Davaineidae oilasi vakillaridir. Jumladan, izlanishlar davomida *Davainea proglottina*, *Railletina echinobothrida*, *R.penetrans*, *R.tetragona* va *Skrjabinia cesticillus* kabi turlar aniqlangan bo'lsa, 1 tur (*Choanotaenia infundibulum*) Dilepididae va 1 tur (*Echinolepis carioca*) esa Hymenolepididae oilalarining vakili hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi sharoitida yashovchi kurkalarda trematodalar sinfining 8 turi uchrashi aniqlandi. Shulardan Echinostomatidae oilasining 3 turi (*Echinostoma revolutum*, *Echinoparyphium recurvatum*, *Hypoderaeum conoideum*), Notocotylidae oilasining 1 turi (*Notocotylus attenuatus*), Plagiorchiidae oilasining 1 turi (*Plagiorchis arcuatus*) va Prosthogonimidae oilasining 2 turi (*Prosthogonimus cuneatus*, *Prosthogonimus ovatus*) qayd etildi.

Kurkalarda Chromadorea sinfi vakillarining 7 turi uchrashi qayd etildi. Shulardan Ascaridiidae oilasining 2 turi (*Ascaridia galli*, *Dispharynx nasuta*), Heterakidae oilasining 2 turi (*Ganguleterakis dispar*, *Heterakis gallinarum*), Subuluridae oilasining 3 turi (*Subulura brumpti*, *Subulura skrjabini*, *Subulura suctorica*) uchrashi ma'lum bo'ldi.

Kurkalarda nematodalarning Enoplea sinfiga mansub 3 turi (*Aonchotheca caudinflata*, *Baruscapillaria obsignata*, *Capillaria bursata*) uchrashi hamda ular Capillaridae oilasining vakili ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilib, mono va aralash tur populyatsiyalarida kurkalarning turli gelmintlar bilan zararanishi hali ham kuzatilayotgani haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. Bizning va

boshqa ko'plab tadqiqotchilar natijalari shuni ko'rsatadiki, tovuqlar, kurkalar, g'ozlar va o'rdaklar ko'pincha aralash invaziyalar, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta gelmintlar bilan zararlangan.

Kurkalarda o'tkazilgan koprologik tekshiruvlarga ko'ra, kurkalar bahor va yozda gelmintlar bilan yuqori darajada zararlanishi aniqlandi.

Farg'ona vodiysining turli iqlim zonalaridagi kurkalarning parazitologik tekshiruv xulosalariga ko'ra, bahor va yozda uchala mintaqada ham yuqori zararlanish, qishda esa past darajada zararlanish aniqlandi.

XULOSA

Tog'oldi, adir va cho'l hududlardagi kurkalarda o'tkazilgan koprologik tekshiruvlar va gelmintologik yorib ko'rish asosida, aniqlangan gelmintlarning tarqalishi va intensivligi gelmint tuxumlarining rivojlanishi uchun mos harorat va namlikka ega bo'lgan tog' oldi hududida qayd etildi.

Tog'oldi, adir va cho'l hududlarida kurkalarda mavsumga qarab o'tkazilgan gelmintologik tadqiqotlar bahor va yozda gelmintlarning tarqalishi va intensivligini yuqori darajada ekanligi aniqlandi.

Kurkalarda eng keng tarqalgan va uchrash darajasi yuqori bo'lgan tur *A.galli* hisoblanadi. Undan keyingi o'rinda esa *D.proglottina*, *R.penetrans*, *Ch.infundibulum*, *N.attenuatus*, *P.cuneatus*, *H.gallinarum*, *S.skrjabini*, *S.suctoria* kabi turlar zararlasa, qolgan turlar esa deyarli juda kam ta'sirga ega yoki tasodifan uchrovchi gelmintlar ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduvaliyev B.A. Farg'ona vodiysi uy parrandalari gelmintlarining faunasi va ekologiyasi. Biol. fan. fals. dokt. diss... (PhD). -Farg'ona, 2025. – 50 b.
2. Zokirov I.I., Abduvaliyev B.A. Farg'ona tumanining yovvoyi qushlari va uy parrandalarida ko'p uchraydigan gelmintlar haqida // International scientific journal science and innovation. Special issue "Actual issues of agricultural development: Problems and solutions", June 2023. 72-74 b.
3. Hassouni T., Belghyti D. Distribution of gastrointestinal helminths in chicken farms in the Gharb region—Morocco // Parasitology research. 2006. V. 99. №2. P. 181. <https://doi.org/10.1007/s00436-006-0145-8>
4. El-Dakhly Kh. M., Mahrous L. N., Mabrouk G. A. Distribution pattern of intestinal helminths in domestic pigeons (*Columba livia domestica*) and turkeys (*Meleagris gallopavo*) in Beni-Suef province, Egypt // Journal of Veterinary Medical Research. 2016. V. 23. №1. P. 85-93.
5. Скрыбин К.И. Метод полного и неполного гельминтологического вскрытия животных / К. И. Скрыбин. М. : МГУ. – 1928. – С. 4–19.